

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

PECULIARITIES OF COOPERATION BETWEEN TURKEY AND THE EUROPEAN UNION IN MODERN INTERNATIONAL RELATIONS

Zulkhumor Makhmudova

PhD researcher

UWED

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Trade and economic relations, cooperation, integration, Customs Union, trade barriers, political situation, political differences.

Received: 07.03.25

Accepted: 09.03.25

Published: 11.03.25

Abstract: Relations between Turkey and the European Union have a long history and are a complex system that includes aspects of cooperation, integration and conflict. These relations deserve to be studied and analyzed as an important component of international politics. Although relations between Turkey and the EU have become tense in recent years, they have not been completely severed. It is important to continue the dialogue and negotiations between the two sides and intensify efforts to develop cooperation. Relations between Turkey and the European Union, which have complex and multifaceted characteristics, are an important topic of research. The further development of relations depends on many factors. It will be useful for both sides to work on resolving conflicts, strengthening cooperation and developing relations based on mutual interests. Mutual economic interests, political differences and historical ties determine the dynamics of trade relations between the two sides. This article attempts to comprehensively examine the domestic political struggle in Turkey, bilateral trade relations, migration issues, the country's accession to the European Union, as well as the positions of pro-Western politicians and their opposition to anti-Western forces. The results of the study allow us to reflect on the socio-political processes in Turkey in connection with the choice of the pro-European path. The article analyzes the history of the establishment of these relations, the stages of

development and the dynamics of cooperation in the political, economic, socio-cultural and security spheres. In addition, the energy exchange strategy between Turkey and the European Union is explained in detail.

ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDA TURKIYA VA YEVROPA ITTIFOQI O'RTASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARINING O'ZIGA XUSUSIYATLARI

Zulxumor Maxmudova

tayanch doktorant

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Savdo-sotiq aloqalar, hamkorlik, integratsiya, Bojxona Ittifoqi, savdo to'siqlari, siyosiy muhit, siyosiy kelishmovchiliklar.

Annotatsiya: Turkiya va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar, uzoq tarixga ega bo'lib, hamkorlik, integratsiya va ziddiyatlji jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab tizimni tashkil etadi. Ushbu munosabatlar xalqaro siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish va tahlil qilishga arziydi. So'nggi yillarda Turkiya va YI o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgan bo'lsada, o'zaro aloqalar to'liq uzilmagan. Ikki tomon o'rtasida dialog va muzokaralarni davom ettirish, hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Turkiya va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar, o'zining murakkab va ko'p qirrali xususiyatlari bilan muhim tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Munosabatlar rivojlanishi kelajakda ko'p omillarga bog'liq. Ziddiyatlarni bartaraf etish, hamkorlikni mustahkamlash va o'zaro manfaatlar asosida aloqalarni rivojlantirishga harakat qilish ikki tomon uchun ham foydali bo'ladi. O'zaro iqtisodiy manfaatlar, siyosiy kelishmovchiliklar va tarixiy munosabatlar bu ikki tomon o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalarining dinamikasini belgilab beradi. Ushbu maqolada Turkiyadagi ichki siyosiy kurash, ikki tomonlama savdo-sotiq aloqalar, migratsiya muammolari, mamlakatning Yevropa Ittifoqiga qo'shilishi, g'arbparast siyosatchilarining G'arbga qarshi kuchlar pozitsiyalari va ularga qarshiligini o'rganish masalalarida yaxlit o'rganishga harakat qilingan. Tadqiqot natijalari Yevropaparast yo'lni tanlash bilan bog'liq holda Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida fikr yuritish imkonini beradi. Maqolada ushbu munosabatlarning shakllanish tarixi,

rivojlanish bosqichlari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlik dinamikasi tahlil qilinadi. Bundan tashqari Turkiya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi energiya almashinuv strategiyasi batafsil yoritib berilgan.

ОСОБЕННОСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА ТУРЦИИ И ЕВРОСОЮЗА В СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Зулхумор Махмудова

Докторант

Университет мировой экономики и дипломатии

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Торгово-экономические отношения, сотрудничество, интеграция, Таможенный союз, торговые барьеры, политическая обстановка, политические разногласия.

Аннотация: Отношения между Турцией и Европейским союзом имеют долгую историю и представляют собой сложную систему, включающую аспекты сотрудничества, интеграции и конфликта. Эти отношения заслуживают изучения и анализа как важный компонент международной политики. Хотя в последние годы отношения между Турцией и ЕС стали напряженными, они не были полностью разорваны. Важно продолжать диалог и переговоры между двумя сторонами и активизировать усилия по развитию сотрудничества. Отношения между Турцией и Европейским союзом, имеющие сложные и многогранные характеристики, являются важной темой исследования. Дальнейшее развитие отношений зависит от многих факторов. Обеим сторонам будет полезно работать над разрешением конфликтов, укреплением сотрудничества и развитием отношений на основе взаимных интересов. Взаимные экономические интересы, политические разногласия и исторические связи определяют динамику торговых отношений между двумя сторонами. В данной статье предпринята попытка всестороннего исследования внутриполитической борьбы в Турции, двусторонних торговых отношений, проблем миграции, вступления страны в Европейский Союз, а также позиций прозападных политиков и их противостояния антизападным силам. Результаты исследования позволяют поразмышлять о социально-политических

процессах в Турции в связи с выбором проевропейского пути. В статье анализируется история становления этих отношений, этапы развития и динамика сотрудничества в политической, экономической, социально-культурной и сфере безопасности. Кроме того, подробно разъясняется стратегия обмена энергией между Турцией и Европейским Союзом.

KIRISH

Turkiya Respublikasi katta hudud, ko‘p sonli aholi, kuchli iqtisodiyot va qurolli kuchlar, ilmiy va ijtimoiy salohiyatga ega bo‘lib Yevropa va Osiyo davlatlari ichida katta mavqega egadir. Ushbu davlatning, ayniqsa, Yevropa qit’asiga bo‘lgan ta’siri sezilarlidir (masalan, Germaniya, Avstriya va boshqalar). Mamlakatning geografik joylashuvi hamda o‘z mintaqasida iqtisodiy, madaniy va tarixiy aloqalar darajasi Yevropa va Osiyo xududida Turkiyaning katta ta’sir eta olish salohiyatini namoyon etmoqda. Ayrim obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra mamlakatni Yevropa Ittifoqiga qabul qilinmayotganligi mazkur davlatning tashqi va ichki siyosatiga umuman ta’sir etayotgani sezilmayapti. Turkiya Respublikasining Qora dengiz bo‘yi, Yaqin Sharq, Bolqon yarim oroli O‘rta Yer dengizi hududi, Markaziy Osiyo ichida siyosiy mavqeい va iqtisodiy ta’sir etish doirasi juda kuchli.

Fikrimizcha, Yevropa mamlakatlari Turkiyani, **birinchidan**, mintaqadagi eng kuchli mamlakat, **ikkinchidan**, energiya manbalarini transportirovka qilish bo‘yicha tranzit davlat, **uchinchidan**, Yevropaga kelmoqchi bo‘lgan migrantlarni ushlab turgan (saqlab turgan) davlat, **to‘rtinchidan**, ayrim arab davlatlariga qarshi turgan iqtisodiyot egasi sifatida qabul qilmoqdalar. Turkiya Respublikasi BMT, YEXHT va NATO doirasida e’tiborga loyiq tinchlik operatsiyalarida faol qatnashayotgan mamlakat hamda Yevropada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotsa bo‘ladigan hudud sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Tarixga nazar tashlasak, **Mustafо Kamol Otaturk** o‘limidan so‘ng Turkiya Respublikasining tashqi siyosati o‘zining o‘zgaruvchanligi, beqarorligi va sustligi bilan ajralib turar edi. XX asrning 60-90-yillarida amalga oshirilgan davlat siyosati natijasida Yevropa mamlakatlari bilan aloqalar qo‘shti mamlakatlar bilan aloqalarni yomonlashuvi asosida ro‘y bergenini ko‘rish mumkin. Turkiya o‘zining barcha yaqin qo‘snilari bilan jiddiy bo‘lgan hududiy, iqtisodiy va siyosiy ixtiloflarga ega edi. Bundan tashqari, davlatning tashqi siyosat borasidagi muammolari yildan yilga kuchayib borganligini kuzatish mumkin. Turkiyaning eng ko‘zga ko‘ringan siyosatchilaridan biri, sobiq Bosh vazir Maxmud Dovudo‘g‘lining ta’kidlashicha, Turkiya yuqoridagi muammoviy vaziyatlarni hal etish, tashqi siyosatni yuritish kelib chiqishi mumkin bo‘lgan yangi tahlikali vaziyatlarni oldini olish maqsadida “**Strategik rivojlanish konsepsiysi**”ni yaratdi hamda uni izchillik bilan amaliyotga

tadbiq etmoqda, ushbu konsepsiyaning tub mohiyati Turkiyaning tashqi siyosatda ayrim davlatlararo masalalarda tamomila yangi bo‘lgan qarorlarni qabul qilish, asosiy e’tiborni G‘arbdan Sharqqa ko‘chirish, tashqi siyosat unsurlarini yangilash, tashqi ta’sir etishning yangi shakllarini qo‘llash (xorijda yashaydigan turk diasporasi yordamidan foydalanish) kabi prinsiplarni amalga oshirishda ko‘rinadi. Konsepsiada asosiy e’tibor yana ancha yillardan beri hal etilmay kelayotgan xalqaro muammolarni hal etishda (masalan, yaqin qo‘snilar bilan) Turkiya Respublikasi vositachligini taklif etishi ham e’tiborga loyiq. Bunday muammolar sirasiga Tog‘li Qorabog‘, Kipr, Iraq, Suriya, Isroil va Falastin mojarolarini kiritish mumkin.

Hozirda esa, Turkiya Respublikasining tashqi siyosati G‘arb va Sharq davlatlariga nisbatan alohida-alohida olib borilishi bilan ajralib turadi. Turkiya o‘zining geostrategik manfaatlaridan kelib chiqib, AQSH, Yevropa (asosan Germaniya, Fransiya va Italiya). Rossiya hamda Xitoy o‘rtasida o‘zaro teng masofali tashqi aloqalarni olib borishga harakat qilmoqda. Turkiyaning Rossiya bilan aloqalari o‘zgaruvchanligi va beqarorligi bilan ajralib turadi. Turkiya va Rossiya o‘rtasidagi urushlar boshqa davlatlarga qaraganda ko‘p bo‘lgan va asrlar davomida bu ikki mamlakat strategik dushmanlik qilib kelganlar.

Turkiya tashqi siyosatining asosiy xususiyatlardan yana biri shuki, mamlakat o‘zining xalqaro hamkorligini pragmatizm asosida olib borib, xalqaro muammolarni yaqin qo‘snilar va eng yaqin ittifoqchilar bilan faol hamkorlikda olib borishidadir.

Turkiya tashqi siyosati mamlakat rahbariyatining xalqaro maydondag‘i obro‘-e’tiboriga ham bog‘liq. Rejep Tayyip Erdo‘g‘on Sharq va G‘arb mamlakatlarida katta mavqega ega bo‘lganligi uchun ushbu holat davlatlararo munosabatlarga ham o‘zining katta ta’sirini kursatmoqda. Bunga misol qilib, Turkiyaning Rossiya, O‘zbekiston, Fransiya, Germaniya mamlakatlari bilan savdosotiqligi olib borishga katta e’tibor berilishi holatlarini kuzatish mumkin.

Fikrimizcha, Turkiyaning tashqi siyosatida hozir mamlakatning birinchi navbatda AQSH, Rossiya va Eron bilan davlatlararo munosabatlari yetakchi o‘ringa ega. Ayni paytda Turkiya Respublikasining G‘arb mamlakatlari bilan aloqalarida bir-biridan hadiksirash, oradagi sovuqlikning kuchayishi kabi holatlar kuzatilmoqda.

Kurdlar muammosini hal etishda G‘arb davlatlarining (xususan, AQSH) o‘ziga xos siyosat yurgizgani hamda kurd kurolli guruhlariga harbiy yordam bergenligi Turkiyaning G‘arb davlatlari bilan o‘zaro aloqalarini yomonlashuviga olib kelgan asosiy omillardan biri bo‘ldi, desak adashmaymiz. Ushbu holat Turkiyaning Rossiya va Eron bilan yaqinlik aloqalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Yana bir omil shundan iboratki, Turkiya Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Braziliya, Janubiy Afrika Respublikasi, Rossiya, Hindiston va Xitoy uyushmasi (BRIKS)

kabi tashkilotlar bilan aloqalari faollashgani ham Anqaraning keng ko‘lamli tashqi siyosatni faol olib borayotganligidan dalolatdir.

TADQIQOT METODI

Turkiya va Yevropa Ittifoqi munosabatlari konstruktivizm nuqtai nazaridan tahlil qilsak, Turkiyada Yevropa bilan o‘zaro munosabatlarda o‘zini Yevropa davlati sifatida qabul qilish va Yevropa madaniyati va qadriyatlariga intilish mavjudligi muhim. Bu, Turkiyada Yevropa Ittifoqiga a’zo bo’lish istagini tushuntirishda yordam beradi.

- YIda Turkiya o‘rnining belgilanishi: YI ham o‘z ichida Turkiyaga nisbatan turli identifikatsiyalarga ega. Ba’zi Yevropa davlatlari Turkiyani Yevropaga tegishli emas deb hisoblasa, boshqalari hamkorlik uchun strategik sherik sifatida ko‘radi. Ushbu farqlar munosabatlarga ta’sir qiladi.

- O‘zaro tushunish va konstruksiyalash: Turkiya va YI o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy omillar, balki o‘zaro tushunish, g‘oyalar almashinuvi va ijtimoiy qurilish orqali ham shakllanadi. Ijobiy o‘zaro tushunish hamkorlikni rivojlantirsa, noto‘g‘ri tasavvurlar ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

- Normalar ta’siri: Demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi kabi Yevropa normalari Turkiyaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. YI bu normalarga amal qilishni talab qilar ekan, Turkiya o‘z ichki va tashqi siyosatini shularga moslashtirishga harakat qiladi.

- O‘zgaruvchan kimliklar: Turkiya va YI o‘rtasidagi munosabatlar davomida davlatlarning o‘zini anglashlari va identifikatsiyalari o‘zgarishi mumkin. Masalan, Turkiyaning YIdan uzoqlashish tendensiyalari yangi identifikatsiyalar shakllanayotganidan dalolat beradi.

- G‘oyaviy raqobat: Turli siyosiy guruhalari va jamiyat ichidagi turli qatlamlar Turkiya va YI o‘rtasidagi munosabatlarni turlicha tushunishi, bu munosabatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin.

Rejep Tayyip Erdo‘g‘onning buyuk, barqaror va o‘ziga to‘q jamiyatni shakllantirish borasidagi sa’yi-harakatlari, birinchi navbatda, Turkiyaning an’anaviy ittifoqchilaridan sovushiga (Turkiya NATO a’zosi sifatida Yevropa va AQSH bilan juda yaqin aloqalarga ega edi) hamda yangi ittifoqchilar bilan aloqalarni kuchaytirishiga zamin yaratmoqda.

Fikrimizcha, Turkiyaning G‘arb davlatlari bilan aloqalarining susayishiga Turkiya ishbilarmon doiralarining (ular mamlakatning iqtisodiy hayotiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi) yangi ittifoqchilar va o‘z tovar-moddiy boyliklarini o‘tkazish uchun yangi bozorlarni kashf etishga bo‘lgan xohishlaridir. Masalan, turk ishbilarmonlarining aksariyati Rossiya, Eron, Pokiston, Ozarbayjon, O‘zbekiston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan aloqalarni kuchaytirishni yoqlab chiqmoqda va g‘arbiy yo‘nalishdagi savdo va siyosiy aloqalar darajasini pasaytirishga chaqirmaqdalar.

Endi Turkiya G‘arb davlatlariga nisbatan tashqi siyosatini belgilab beradigan asosiy holatlarga to‘xtalsak:

birinchidan, Turkiyaning eng yangi davrdagi tarixiga nazar solsak, mamlakat G‘arb mamlakatlari bilan yaqindan aloqa qilish, Yevropadagi turli uyushmalar va tashkilotlarga a’zo bo‘lish, asosan, G‘arb mamlakatlari bilan savdo-sotiqni olib borishga katta e’tibor berilishi holatlarini kuzatish mumkin. Oxirgi 15 yil ichida Turkiya Respublikasining tashqi siyosati tamomila yo‘nalishlarga ega bo‘lib, jiddiy transformatsiya jarayonlarini boshidan kechirganligini ham yaqqol kuzatish mumkin.

ikkinchidan, muqaddam Turkiyada iqtisodiy va siyosiy bo‘xronlar, harbiylarning mutloq hokimiysi, faqat G‘arb mamlakatlari bilan yaqindan muloqot qilish hamda tashqi siyosatdagi beqarorlik holatlari kuzatilgan bo‘lsa, hozirda chuqur o‘ylangan, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan tashqi siyosatni kuzatib turibmiz.

uchinchidan, Turkiya Respublikasining juda qulay geostrategik joylashuvi (G‘arb va Sharq uchrashadigan chorrahada) G‘arbda Gretsya va Bolgariya, Sharqda Gruziya, Armaniston, Eron, Iroq, Suriya, dengizda esa Ruminiya, Ukraina, Rossiya bilan umumiy chegaralarga ega ekanligi Turkiyaning hozirgi tashqi siyosatini belgilab bermoqda.

to‘rtinchidan, hozirda Turkiya siyosatining asosan yaqin qo‘shnilar bilan uzoqqa mo‘ljallangan barqaror aloqalarga kirishish prinsipi asosida olib borilayotganligi.

beshinchidan, Turkiya tashqi siyosatini mamlakat asoschisi Otaturkning “**yurtda tinchlik, dunyoda tinchlik**” prinsipi asosida olib borilayotganligi.

oltinchidan, eng yangi davrda Turkiya tashqi siyosatining ikkita asosiy prinsiplar bo‘lgan “**qo‘shnilar bilan muammolarsiz aloqalarga kirishish**” hamda “**Turkiya atrofida barqarorlik va xavfsizlik kamarini yaratish**” prinsiplariga asoslanayotganligini ham alohida ta’kidlash joiz.

yettinchidan, Turkiyaning yuqorida prinsiplarga asoslangan tashqi siyosatida G‘arbiy yo‘nalishga uncha berilmayotganligini ham keltirib o‘tish kerak.

sakkizinchidan, Turkiya tashqi siyosatining chuqur konseptual asoslarga ega ekanligi.

so‘qqizinchidan, Turkiya Respublikasining G‘arb davlatlaridan farqli ravishda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)** ni jahondagi eng asosiy xalqaro tashkilot sifatidagi o‘rni va mavqeini saqlab qolish borasida teran fikrlarga ega ekanligi.

to‘qqizinchidan, Turkiya NATO a’zosi sifatida Butunyevropa xavfsizligi konsepsiyasini Rossiya bilan birgalikda shakllantirish kerakligi to‘g‘risida, yangi xalqaro formatlarni qo‘llab-quvvatlashi, kuchli yettilik emas, kuchli yigirmatalik borasida bot-bot ta’kidlamoqda.

o‘ninchidan, NATO a’zosi bo‘lsa ham Turkiya Respublikasi boshqa mamlakatlar bilan mustaqil va erkin aloqalarga kirishishni yoqlab chiqmoqda.

o‘n birinchidan, Turkiyaning asosiy maqsadi 2025-yilda respublikani eng rivojlangan o‘nta mamlakat qatoriga olib kirish hamda texnologik yo‘nalishda mintaqaviy lider maqomiga erishish ekanligini ko‘rsatish.

o‘n ikkinchidan, Turkiya tashqi siyosatida xalqaro neft va gaz quvurlarini mamlakat hududidan o‘tishi, katta savdo flotiga ega ekanligi (300 ga yaqin katta kemalar), yirik hajmdagi yuklarni tashishga mo‘ljallangan yuk avtomashinalari parkiga (50000 ga yaqin) ega ekanligi omillaridan ustalik bilan foydalanayotganligi.

o‘n uchinchidan, Turkiya hukumati va davlatga tegishli gumanitar tashkilotlarning (masalan, TIKA va boshqalar) Yevropa mamlakatlarida istiqomat qilayotgan turk millatiga mansub aholi bilan yaqindan aloqalar qilish, ularning ta’sirini Turkiya davlat manfaatlari yo‘lida ishlatilayotganligi va foydalanilayotganligi.

o‘n to‘rtinchidan, Turkiya rahbar doiralari o‘z mamlakatlarini NATOga a’zoligini hamda Yevropa va AQSH bilan yaqin aloqalari mavjudligini o‘z mamlakatlari xududi xavfsizligini ta’minlab beradigan yagona omil sifatida qaramayaptilar.

Hozirda dunyo geosiyosiy xaritasida hali kuzatilmagan fenomen bo‘lgan hodisa, ya’ni Turkiyaning an’anaviy ittifoqchilardan uzoqlashib, o‘z qo‘snilari bilan yaqinlashuvi hamda savdo-sotiqni birinchi o‘ringa qo‘yib siyosat yurgizayotganligidir. Bundan tashqari, mamlakat ildam qadamlar bilan SHHT va BRIKS tashkilotlariga yaqinlashmoqda.

Turkiyada nashr etiladigan adabiyotlarga e’tibor bersak, yuqorida keltirilgan fikrlarimizni to‘g‘riligiga amin bo‘lamiz. Masalan, turklar AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniyaga qaraganda Rossiya, Ozarbayjon, O‘zbekiston. Eron, Qozog‘iston, Xitoy va boshqa Sharq mamlakatlari bilan aloqalarni rivojlantirish zarurligini ta’kidlab fikr yuritmoqdalar. Bunda ular faqat islom dini hukmron bo‘lgan mamlakatlar emas, balki boshqa davlatlar to‘g‘risida ham gapirmoqdalar.

Fikrimizcha, G‘arb davlatlari Turkiyaning yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olib, yurgizayotgan tashqi siyosat konsepsiyasini to‘liq anglab olib, keyin ushbu mamlakat bilan davlatlararo aloqalarga kirishsalar, Turkiyani o‘zlarining manfaatlari mavjud mamlakatlar qatoridan chiqarib yubormaydilar.

Mavjud xorijiy va miliy darajada tayyorlangan ilmiy tadqiqotlarga e’tibor bersak, Turkiyaning Yevropa va AQSH yo‘nalishida siyosiy va boshqa aloqalarning susayishiga olib kelgan yana bir omilni ko‘rsatish mumkin. U ham bo‘lsa Turkiya yoshlarining g‘arbiy mamlakatlarda vujudga kelgan qadriyatlarini (ommaviy madaniyat ko‘rinishlarini ham) o‘zlariga singdirgan bo‘lsalar ham baribir islom dini, islom dini qadriyatlarini asosan hurmat qilayotganlari hamda asrlar davomida shakllangan urf-odatlarni esdan chiqarmayotganlaridir. Hozirgi vaqtida turk millatiga mansub insonlarning qariyb 6 millionga yaqini Yevropa mamlakatlarida yashab, u

yerda o‘zlarining otalaridan qolgan urf-odatlarni hurmat qilib kelayotganliklari bunga misol bo‘la oladi. Ularning esa, Turkiyada yashayotgan yoshlarning katta qismiga sezilarli darajada ta’sirlari borligi hammaga ayon.

Yevropaning uzoqni ko‘zlaydigan siyosatchilari Turkiya bilan sovuqlashgan aloqalarni qayta tiklash, turli yo‘nalishlardagi munosabatlarni jonlantirishdan manfaatdorlar, ular orasida Yevropa ittifoqi raisi bo‘lgan D.Tusk, Yevrokomissiya rahbari J.K.Yunker va boshqalarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bundan tashqari, AQShning sobiq Prezidenti D.Tramp ham Turkiya bilan yaqindan aloqalarga kirishish tarafdori hisoblanadi. G‘arbiy mamlakatlar rahbarlari Turkiya rahbari Rejep Tayyip Erdo‘g‘onni o‘z mamlakati milliy manfaatlarini qattiq himoya qiladigan, bir so‘zlik, aynan o‘zaro manfaatlar ustunligini yuqori qo‘yuvchi siyosatchi ekanligini ham tushunib yetishlari zarur. Busiz G‘arb bilan Turkiya o‘rtasidagi aloqalar tanazzulga yuz tutgan holda qolaverardi.

O‘z navbatida Turkiya bugungi kunda gaz va neft almashinushi bo‘yicha Yevropada yetakchilik qilayotganini hisobga olsak, Yevropa Ittifoqi Turkiya bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga intilishi Ittifoq strategiyalaridan biridir. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni Turkiya tashqi ishlar vazirligi hamda Yevropa Ittifoqi rasmiy saytlaridan ham ko‘rib chiqsak bo‘ladi. Energiya Turkiya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlardagi eng muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Mintaqaviy energetika sohasidagi hamkorlikka berilgan katta ahamiyatning belgisi sifatida Yevropa energiya xavfsizligini ta’minlashda o‘zining ajralmas mavqeい bilan Turkiya 2006-yilda kuzatuvchi maqomi bilan Energiya hamjamiyatiga qo‘sildi.

Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lish muzokaralari doirasida 2007-yilda “energiya bo‘limi”ni ko‘rib chiqish jarayoni yakunlandi. Turkiya muzokaralar uchun energiya bobini imkon qadar tezroq ochishni istaydi.

TEİAŞ va ENTSO-E o‘rtasida uzoq muddatli shartnoma

Turkiya elektr uzatish kompaniyasi (“TEİAŞ”) va Yevropa elektr energiyasini uzatish tizimi operatorlari tarmog‘ining (ENTSO-E) tegishli kengashlari 2015-yil 15-aprelda Yevropa elektr energiyasi bozorining jismoniy integratsiyasini ta’minlash uchun uzoq muddatli shartnoma imzoladilar. Turkiya elektr energiyasi bozori, turk elektr tizimlarining Yevropa qit’alarining elektr energiya tizimiga doimiy ulanishini ta’minlash alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Shunday qilib, Turkiya elektr tizimi va elektr bozori, Yevropa ichki elektr bozori o‘rtasida ilg‘or integratsiyani amalga oshirdi.

Turkiyaning energiya sektoridagi asosiy statistik ma'lumotlari va oylik sanoat hisobotlarini TÜİK (Energiya bozorini tartibga solish organi) va EPDK (Turkiya Statistika instituti) quyidagi havolalarda topish mumkin.

Oxirgi 20 yil ichida Turkiya Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) davlatlari orasida energiyaga bo‘lgan talabning eng tez o‘sishiga erishdi. Bu davrda dunyoda elektr energiyasi va tabiiy gazga bo‘lgan talabning o‘sishi bo‘yicha Turkiya Xitoydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Dunyoning tasdiqlangan neft va tabiiy gaz zahiralaring taxminan 60 foiziga tutash hududda joylashgan Turkiya o‘z mintaqasida tabiiy gaz va elektr energiyasining eng yirik bozorlaridan biriga aylandi.

Boshqa tomondan, Turkiya energiya talabini qondirish uchun 74% importga qaram. Turkiyaning energiya strategiyasining xilma-xil tuzilishi va energiya importiga qaramligi bu sohada xalqaro aloqalarni birinchi o‘ringa olib chiqadi.

Turkiyaning energiya strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri energiya ta’minoti xavfsizligini mustahkamlash uchun yo‘nalishlar va resurslarni diversifikatsiya qilishdir. Turkiya, shuningdek, mintaqaviy va global energiya xavfsizligiga hissa qo‘shish va mintaqaviy energiya savdo markaziga aylanishni maqsad qilgan. Turkiyaning energiya strategiyasining xalqaro hajmini tashkil etuvchi asosiy elementlar quyidagilardir:

1. O‘sib borayotgan talab va importga qaramlikni hisobga olgan holda neft va tabiiy gaz yetkazib berishda yo‘nalishlar va resurslarni diversifikatsiya qilishni ta’minlash;
2. Mintaqaviy va global energiya xavfsizligiga hissa qo‘shish,
3. Energetika sohasida hududiy savdo markazi bo‘lishi;
4. Energiya zanjirining har bir bosqichi barqaror rivojlanish kontekstida ijtimoiy va atrof-muhitga ta’sirlarni ko‘rib chiqish;
5. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda mahalliy va qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish;
6. Energiya tarkibiga yadro energiyasini kiritish.

Turkiya energiya importiga qaramlikni kamaytirish, mahalliy resurslardan maksimal darajada foydalanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash maqsadlari doirasida qayta tiklanadigan energiyaning milliy energiya tarkibidagi ulushini oshirish va energiya tarkibiga atom energiyasini qo‘shish borasidagi sa’y-harakatlarini davom ettirmoqda.

Qayta tiklanadigan energiya

Turkiya qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. 2017-yilda qabul qilingan Milliy energetika siyosatiga ko‘ra, mahalliy va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni ko‘paytirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Bundan tashqari, Turkiya qayta tiklanadigan energiya manbalarining o‘rnatilgan quvvati bo‘yicha Yevropada 5-o‘rinni, dunyoda esa 12-o‘rinni egalladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining Turkiyadagi ulushi 2022-yil oxirida 54 foizga yetdi.

Hozirgi kunda Turkiya YI ning eng muhim savdo sheriklaridan biri hisoblanadi. 2023-yilda Turkiya va YI o‘rtasidagi savdo hajmi 170 milliard yevroga yaqinlashdi. YI Turkiyaning eng yirik eksport bozori hisoblanadi va Turkiyaning umumiy eksportining 40% dan ortig‘i YIga yo‘naltirilgan. Turkiya YI dan avtomobil, mashina qismlari, kimyoviy mahsulotlar, elektrotexnika mollari va oziq-ovqat mahsulotlarini import qiladi. Turkiya YI ga avtomobil, kiyim-kechak, to‘qimachilik mahsulotlari, meva-sabzavotlar va metall mahsulotlarini eksport qiladi. Ammo Turkiya va YI o‘rtasidagi savdo-sotiq aloqalari bir qator muammolar mavjud:

-Siyosiy kelishmovchiliklar: Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lish jarayonidagi kechikishlar, insonlar huquqlari va demokratiya borasidagi tortishuvlar, Kipr masalasi kabi munosabatlarni taranglashtiruvchi omillar mavjud.

-Turkiyaning iqtisodiy islohotlari: Turkiyaning iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor iqtisodiyotiga o‘tish borasidagi say-harakatlari uning YI bilan savdosini kuchaytirishi mumkin.

-Yevropa Ittifoqining siyosati: YI ning Turkiya bilan savdodagi siyosati turli omillarga bog‘liq bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Turkiya va YI o‘rtasidagi savdo-sotiq aloqalari murakkab va dinamik xususiyatiga ega. Siyosiy kelishmovchiliklar va boshqa omillar bo‘lishiga qaramay, ikki tomon o‘rtasidagi savdo hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Kelajakda iqtisodiy va siyosiy holatlarning ta’siriga qarab, turli istiqbollar kutilmoqda.

Shu o‘rinda Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishga harakat qilish masalasi ham Turkiya tashqi siyosatining manfaatlaridan biri hisoblanadi. Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishiga to‘sinqlik qilayotgan asosiy sabablar qatorida davlatning iqtisodiy rivojlanishining yetarli darajada emasligi, aholi farovonligining pastligi, shuningdek, inson huquqlari va so‘z erkinligi sohasida demokratik institutlarning yetarli darajada rivojlanmaganligidan shikoyatlar mavjud. Boshqa nomzod davlatlar singari Turkiya ham o‘zining iqtisodiy rivojlanishi uchun kuchli omillar – birinchidan, iqtisodiy subsidiyalar, ikkinchidan, fuqarolarining Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida erkin mehnat qilish imkoniyatidan umid qilmoqda. Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishi Ittifoqning o‘zi uchun 2004-yildagi oldingi kengayish to‘lqinidan ham muhimroq ta’sir ko‘rsatadi. Aholisi yuqori bo‘lgan Turkiyada aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot Yevropa Ittifoqidagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan taxminan 4 baravar kam. Yevropaning eng rivojlangan davlatlari qatorida bo‘lmagan va Yevropa Ittifoqidan keng ko‘lamli moliyaviy yordam talab qilayotgan Turkiya a’zolikka qo‘shilsa, asosiy donor davlat bo‘lgan Germaniyadan keyin Yevropaning eng ko‘p aholisi bo‘lgan davlatlaridan biriga aylanadi. Bu unga Yevroparlament va Yevropa Ittifoqi Vazirlar Kengashida ko‘p sonli o‘rinlarga da’vo qilish imkonini beradi, bu esa Yevropa Ittifoqining ham ichki, ham tashqi siyosatiga ta’sir qiladi va bu Yevropaning bir qator

yetakchilari orasida xavotir uyg‘otadi. Shuningdek, ko‘plab yevropalik tahlilchilar armiyaning bu mamlakat siyosiy hayotidagi an’anaviy katta rolini hisobga olgan holda, Turkiyaning siyosiy tizimini avtoritarga moyil deb hisoblashadi. Bu fikrni tasdiqlash uchun yevropalik siyosatchilar turk armiyasining yuqori martabali zabitlari va ayniqsa Bosh shtab boshlig‘ining siyosiy mavzularda ommaviy bayonotlari amaliyotini misol qilib keltirishmoqda, chunki ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi tufayli bu bayonotlar mamlakat ichidagi siyosiy jarayonga ta’sir o’tkazish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Birgalikda bu o‘zgarishlar mamlakat Konstitutsiyasi moddalarining uchdan bir qismining o‘zgarishiga olib keldi. Masalan, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro qonunlar qabul qilindi, o‘lim jazosi bekor qilindi, mamlakatda ayollar huquqlari bilan bog‘liq vaziyat yaxshilandi, qiyonoqlarga qarshi yangi kafolatlar joriy etildi, Turkiyada jazoni ijro etish tizimini isloq qilish choralari ko‘rildi. Shuningdek, so‘z erkinligiga nisbatan avvalgi cheklovlar, birinchi navbatda, ommaviy axborot vositalari sohasida sezilarli darajada yumshatilgan edi. Bu islohotlarning amalga oshirilishi, shubhasiz, turk jamiyatining nafaqat siyosiy sohasining umumiyligi erkinalashuvidan, balki umuman davlatning Yevropa standartlariga ko‘proq mos kelishiga o‘zgaganidan dalolat beradi. Biroq, 2013 yil bahor va yoz voqealari Turkiyaning siyosiy tizimining nomuvofiqligi tufayli Yevropa Ittifoqiga kirishiga qarshi bo‘lgan nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlovchi ko‘plab misollar keltirdi, avvalgi dalillar, norozilik namoyishlari paytida tartibsizliklar paytida yana keng e’lon qilindi.

XULOSA

Yevropaning ko‘pgina davlatlari Turkiyani madaniy va tarixiy jihatdan begona davlat deb hisoblashlari muhim rol o‘ynaydi (birinchi navbatda, bu mamlakatda islam hukmronligi sababli). Albatta, “Xristian olami” va “Yevropa” tushunchalarining o‘ziga xosligi haqiqatan ham o‘tmishda bo‘lgan, ammo bugungi kunda ham xristian Yevropasi tushunchasi Yevropa darajasida birlashgan xristian demokratlar uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda. Yevropa parlamentining eng yirik guruhlari - Yevropa xalq partiyasi. Ular uchun Yevropa Ittifoqi kengayishining asosiy mezoni ko‘pincha diniy omil, ya’ni nomzod mamlakatlarda nasroniy aholining ustunligi hisoblanadi. Va shu nuqtai nazardan qaraganda, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga to‘laqonli a’zo bo‘lishining asosi, ayniqsa, Yevropa hayotida islomning roli o‘sishini cheklash siyosati kuchayib borayotgani nuqtai nazaridan so‘roq ostida. Biroq, qo‘rquvning asosiy sabablari hali ham iqtisodiy xususiyatga ega - iqtisodiy inqiroz sharoitida Yevropa Ittifoqi byudjetining Turkiyaga sezilarli darajada subsidiyalar to‘lash qobiliyatiga shubhalar mavjud. Turkiya iqtisodiyotining Yevropa Ittifoqining yagona iqtisodiy tizimidagi raqobatbardoshligi ham so‘roq ostida. Bundan tashqari, arzon ishchi kuchining Yevropa mehnat bozoriga kirib kelishi bilan bog‘liq jiddiy xavotirlar mavjud bo‘lib, bu Yevropada o‘rtacha ish haqi darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Yaqin Sharq mamlakatlaridan kelgan muhojirlarning Yevropa mamlakatlariga integratsiyalashuvi muammosi yaqin kelajakda yanada

og‘irlashadi. Yaqin Sharq muhohjirlarining keyingi oqimi nafaqat Shengen hududining normal faoliyatiga, balki Yevropa ijtimoiy makonining barqarorligiga ham tahdid soladi.

Iqtisodiy muammolardan tashqari Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga kirishi yo‘lida qator siyosiy to‘siqlar ham mavjud. Avvalo, bu Turkiyadagi kurdrlarning hal etilmagan muammolari va Kiprning maqomi masalasidir. Aynan Kipr muammosi Yevropaning bir qator davlatlari tomonidan eng muhimlaridan biri sifatida qayta-qayta tilga olingan. Muammo Kipr Yevropa Ittifoqi va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlarda faqat 2004-yildan keyin, Kipr Respublikasi umumiy Yevropa makonining bir qismi bo‘lganidan keyin salbiy rol o‘ynay boshladi. O‘sha vaqtga qadar Turkiyaning YIga kirish yo‘lidagi asosiy to‘siqlar, asosan, Turkiyadagi inson huquqlari va bu davlatning siyosiy tizimining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha YIdan da’volar edi. Ammo Kipr Respublikasining Yevropa Ittifoqiga kirishi to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi (keyinchalik Germaniya kansleri Angela Merkel tomonidan noto‘g‘ri deb baholandi. Turkiya bilan muzokaralar jarayonida sezilarli qiyinchiliklar tug‘dirdi. Biroq Turkiyaning bir tomonlama yon berishlari va Yevropa Ittifoqi takliflariga to‘liq bo‘ysunishi nihoyatda qiyin. Bu masala xavfsizlik nuqtai nazaridan ham, ayniqsa, milliy g‘urur va obro‘-e’tibor nuqtai nazaridan juda og‘riqli. Turkiya bosh vaziri Rajab Toyyib Erdo‘g‘on Euronews telekanaliga bergen intervyusida shunday dedi: “Kiprdagi hozirgi boshi berk ko‘cha uchun Yevropa Ittifoqi katta mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. U Janubiy Kiprni qabul qilib, tarixiy xatoga yo‘l qo‘ydi. Janob Shreder Yevropa Ittifoqi siyosatini keskin tanqid qilib, Shimoliy Kiprga axloqsiz munosabatda bo‘lganini aytdi. Biz bu masala bo‘yicha spekulyatsiya qilmaymiz. Yevropa Ittifoqi a’zolari o‘zlarini qilgan xatoni haligacha eslashadi. Tarix hamma narsani o‘z o‘rniga qo‘yadi». Bu yoki boshqa tarzda, manfaatdor tomonlarning o‘zaro sa’y-harakatlariga qaramay, Fransiya atrofidagi muammoni hal qilish uchun muzokaralar masalasi va Kipr tugallanmaganligicha qolmoqda va Yevropa Ittifoqi va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda.

Xuddi shunday jiddiy muammo - Turkiya Birinchi jahon urushi paytida arman genotsidini tan olmagan. Bu boradagi keskin qarama-qarshiliklar Yevropa Ittifoqi va Turkiya o‘rtasidagi muzokaralarda doimo asosiy qiyinchiliklardan biri bo‘lib kelmoqda. Turkiyaning 1915-yildagi armanlar genotsidi masalasida o‘z pozitsiyasini himoya qilishi odatda Anqaraning Armaniston bilan bir qator hal etilmagan muammolari (masalan, tarangligini yo‘qotmagan Tog‘li Qorabog‘ muammosi) bo‘lgan Ozarbayjoni qo‘llab-quvvatlashi bilan mustahkamlanadi. Albatta, bunday siyosiy tortishuvlar va tomonlarning murosaga kelishni o‘zaro istamasligi hamma uchun mos yechim ishlab chiqishga yordam bermaydi. Bundan tashqari, faqat so‘nggi yillarda Turkiya astasekin kurdlar muammosini hal qila boshladi – masalan, etnik ozchilik tillarida, jumladan, kurd tilida ta’limga qo‘ylgan taqiq bekor qilindi va mamlakatning beqaror hududlarida favqulodda holat tartibi bekor qilindi.

Ammo Yevropa va O'rta Yer dengizi mintaqasi uchun dolzarb bo'lgan xalqaro siyosiy va iqtisodiy muammolardan tashqari, qit'alararo darajadagi geosiyosiy muammolar muhim rol o'ynaydi. Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo'shilishi muxoliflari AQShning Yevropadagi geosiyosiy vaziyatga ta'siri kuchayishi mumkinligidan xavotirda, chunki ko'p aholiga ega Turkiya uzoq vaqtdan beri Yevropa mintaqasi va AQSh siyosatining muhim ittifoqchisi va dirijyori bo'lib kelgan. keljakda amerikaparast qarorlarni Yevropa parlamenti orqali qabul qila oladi. Washington an'anaviy tarzda NATOning janubiy qanotini himoya qilish bo'yicha muhim harbiy-siyosiy funksiyani bajaradigan Anqara bilan hamkorlik masalalariga katta e'tibor qaratadi. Sovuq urush davridan beri Turkiya o'zining strategik ahamiyatini yo'qotgani yo'q va Qo'shma Shtatlar Turkiyani Yaqin Sharq va Fors ko'rfazida AQSh ta'sirining kengayishiga hissa qo'shayotgan muhim ittifoqchi sifatida qarashda davom etmoqda. 1991 va 2003-yillarda AQShning ushbu hududlardagi amaliyotlari davomida turk harbiy inshootlari logistika va harbiy ta'minotda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, Turkiya Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada demokratiyani yoyishda o'rnak bo'la oladi, bu mintaqadagi musulmon davlatlar uchun rivojlanish modeli bo'ladi. Albatta, bunday istiqbollar AQSh uchun tashviqot maqsadida qimmatlidir.

Shu bilan birga, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo'shilishi tarafдорлари (birinchi navbatda Buyuk Britaniya) yirik iqtisodiyotga ega va NATOdagi ikkinchi yirik qurolli kuchlarga ega Turkiya Yevropa Ittifoqining xalqaro munosabatlardagi ishtirokchisi sifatidagi mavqeini global miqyosda mustahkamlaydi, deb ta'kidlamoqda. Turkiyaning geografik joylashuvi, foydali resurslarga boy mintaqalar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tarixiy aloqalari hisobga olinsa, u to'g'ridan-to'g'ri Yevropa Ittifoqining geosiyosiy ta'sir doirasiga kiradi: Sharqiy O'rta Yer dengizi va Qora dengiz sohillari, Yaqin Sharq, Kaspiy dengizi va Markaziy Osiyo. Shuningdek, qo'shilish tarafдорлари Turkiya Yevropa Ittifoqiga qo'shilish shartlarining aksariyat qismini bajarganini, masalan, qo'shilish shartlarini qondirish uchun inson huquqlarini himoya qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishganini ta'kidlamoqda. Tabiiyki, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga kirishi tarafдорлари iqtisodiy omillarga ham tayanadi. Birinchidan, Yevropa Ittifoqi, albatta, Turkiyani Yaqin Sharq mintaqasidagi eng muhim siyosiy o'yinchilardan biri va uni energiya resurslarini tashish bo'yicha tranzit mamlakat sifatida ko'radi. Turkiya BMT va NATOning ko'plab tinchlikparvar operatsiyalarida ishtirok etadi, bu mintaqadagi mojarolarni hal qilishda vositachi rolini o'ynaydi va Yevropa Ittifoqining energiya transporti tarmog'ida muhim davlat hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining Turkiya bilan o'zining mintaqaviy va energiya xavfsizligi va siyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda hamkorlikni davom ettirishi muhim. Ikkinchidan, Turkiya bugungi kunda yevropalik investorlar uchun jozibador davlat, chunki Turkiyadagi iqtisodiy sharoitlar investorlarga sarmoya kiritish va foyda olish imkonini beradi. Turkiya, shuningdek, Yevropa ishlab chiqaruvchilari uchun keng savdo bozori bo'lib, u G'arbiy Yevropa

mamlakatlari bilan solishtirganda, sanoat jihatdan kam rivojlangan va o‘zining innovatsion texnologiyalariga ega emas. Demak, muammoga shu nuqtai nazardan qaraganda, Yevropa Ittifoqi iqtisodiy foyda ko‘rishi mumkin. Yuqoridagi masalalar Turkiya bilan muzokaralar jarayonida inobatga olinadi, ular bu davlatning Yevropa Ittifoqiga kirishiga qarshi bo‘lganlar uchun asosiy qarshi dalillar bo‘lib xizmat qiladi.

Turkiya tomonidan Yevropa Ittifoqi talablariga (fuqarolik qonunchiligini modernizatsiya qilish, erkaklar va ayollar huquqlarini tenglashtirish, jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirishlar, o‘lim jazosini bekor qilish) rioxaya qilish uchun amalga oshirilgan ko‘plab ichki o‘zgarishlarga qaramay, 2005-yil oxirida Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lishi bo‘yicha muzokaralarning boshlanishi va bugungi kungacha vaziyat sezilarli darajada o‘zgarmadi va hali tugashdan yiroq. Bunday rivojlanishning asosiy sababi Yevropa Ittifoqida davom etayotgan iqtisodiy inqiroz va Yaqin Sharqdagi siyosiy beqarorlikdir. Shunday qilib, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish istiqbollari noaniqligicha qolmoqda, bunga ko‘p sonli iqtisodiy va siyosiy omillar, shuningdek, muvaffaqiyatli muzokaralar jarayoniga to‘sinqilik qiluvchi hal qilinmagan qarama-qarshiliklar yordam bermoqda. Biroq R.Erdog‘an Yevropa Ittifoqiga integratsiya jarayonini davom ettirishga qaror qildi. Intervyuda u shunday dedi: “Ular (Germaniya va Fransiya) nima qilishmasin va oldimizga qanday to‘silalar qo‘yishmasin, biz sabr bilan bu yo‘lda davom etamiz. Albatta, Yevropa Ittifoqiga a’zo barcha davlatlar “Turkiyani qabul qilmaymiz” desa, bunga barham berish mumkin. Lekin ular aytmagunicha, biz to‘xtamaymiz”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Алекперов. Р. Роль стил во внутренней и внешней политике Турции после Второй мировой войны Автореф...канд.полит.наукю-М.2007-С.12-14
- 2.Азиз Аль-Азмех.Ислам и современность. – М. 2009.С.17
- 3.Шамсутдинов А. М. Национально-освободительная борьба в Турции 1918-1923 гг
- 4.<https://www.data.tuik.gov.tr/Kategori/GetKategori?p=cevre-ve-enerji-103&dil=1>,
<https://www.epdk.gov.tr/Home/En>
5. <https://enerji.gov.tr/homepage>
6. Накисбаев Д.В. США – ЕС – Турция. Современная Европа/Дипломатическая Академия МИД России [под редакцией Т.А.Закаурцевой], М.: Восток-Запад, 2008.
7. Turkey in Europe. Second Report of the Independent Commission on Turkey. September 2009.
- 8.Шлыков В.И. Эволюция партийной системы Турции в период Третьей Республики (1983-2007) // Турция на рубеже веков. М., 2008
9. Кудряшова Ю.С. Турция и Европейский Союз: история, проблемы и перспективы взаимодействия. М., 2010.

10. Redmond John, «Turkey and the European Union: troubled European or European Trouble?» *International Affairs* vol. 83, N2 (2007).
11. Karpat K. Turkish foreign policy: some introductory remarks. Istanbul, 2003.
12. Корнилов А.А. Центр стратегических исследований МИД Турецкой Республики: особенности функционирования и масштаб экспертизы // Актуальные проблемы изучения современной Турции: Материалы международной научной конференции. Н. Новгород: ИСИ ННГУ, 2007.
13. Redmond John, «Turkey and the European Union: troubled European or European Trouble?» *International Affairs* vol. 83, N2 (2007).